

ONA TILIM - JONU DILIM

Husanova Sabohat

Jizzax davlat pedagogika institute talabasi

"O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning

O'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar".

(A.Qodiriy)

Ona tili - onajonim tili bu. Ona tili - bu millatning ruhi, ma'naviy qiyofasi, or - nomusi, katta orzu - umidlar namunasi. Ona tili - bu so'z shunchalar ulug'ki, uni ta'riflasak ham kam aslida. Negaki onani hech qanday so'z bilan ta'riflay olmaganimiz kabi ona tilimizga bo'lgan muhabbatimizni ham ta'riflay olmaymiz. Har qaysi millatning o'z Vatani, oilasi bo'lganidek, jonajon, betakror tili ham bo'ladi. Inson dunyoga kelibdiki, uning o'z Vatani, oilasi qanchalik muqaddas bo'lsa, ona tilisi ham shunchalar ulug'dir. Ona tiliga muhabbat bu, avvalo, ona allasi bilan uning quloqlariga singadi.

Ona allasi shunday ilohiy kuchga egaki, uni eshitgan har bir go'dakning yuragi jo'nbushga keladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bejizga "Til - millat ruhi" deb ta'kidlamaydi. Tilsiz jamiyat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi. Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Ota - bobolarimiz qadimdan ona tilimizni asrab- avaylaganlar, uning rivojlanishiga hissa qo'shganlar. Jumladan, buyuk mutafakkir, davlat arbobi, g'azal mulkingning sultoni hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin

Muhammad Bobur kabi o'zbek adabiyoti namoyandalarining o'рни beqiyosdir. Hozirgi kunda ham ona tilimizga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Til – bu millat faxridir. Har qaysi inson o'z vatani bilan qanchalik faxrlansa o'z ona tili bilan ham shunchalik faxrlanadi. Shunday ekan, ona tilini sevish, uni asrab avaylash, so'z boyligini chuqurroq oshirish zarurdir.

Men ham shu o'rinda, ona tilimizning kundan-kun gurkirab, o'zining serjilo va purma'no hikmatlari bilan boyib borishi uchun qo'limdan kelguncha harakat qilaman. Zero "Til yashasa millat yashaydi" deb buyuk allomalarimiz bejiz aytishmagan. Milliy tilimizga, ona tilimizga bo'lgan e'tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma'no fikrlarni eslaylik: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur" (M.Behbudiy).

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zbek tilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Allohga behisob shukrlar bo'lsinki, o'zbek tilining shon-shuhrati, obro'si borgan sari yildan yilga oshib bormoqda. Sport, fan, madaniyat va san'at sohasida O'zbekiston yoshlarining sa'y-harakatlari beqiyosdir. Yurt kelajagi bo'lgan biz yosh avlod o'z harakatlarimiz bilan o'zbek tilini butun dunyo tan olishi, uning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shishimiz lozim. Shu jumladan, O'zbekiston yoshlari qatorida men ham ona tilimiz sofligini saqlash, uni yanada yuksaltirishga o'z hissamni qo'shish uchun astoydil harakat qilaman.